|   |      |
|---|------|
| Individual ta'lim trayektoriyasini ishlab chiqishda pedagogik yondashuvlar .....  | 2744 |
| <b>Kabilova Sevara Rashid qizi</b>  |      |
| Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqaruv tamoyillaridan foydalanishni takomillashtirish.....  | 2748 |
| <b>Rajabova Nargiza Ahmadovna</b>   |      |
| Ложь как социально-психологический феномен: генезис и функции в процессе социализации личности.....   | 2751 |
| <b>С. Ю. Нишанов</b>  |      |
| Формирование личностных и профессиональных качеств директоров: педагогическая деятельность дошкольных образовательных организаций, психологические особенности .....                          | 2756 |
| <b>Мухторова Заррина Султоновна, Бектошева Динора Зоҳиджон кизи</b>   |      |
| Персональные данные директоров дошкольных образовательных организаций: анализ передового зарубежного опыта формирования профессиональных качеств.....   | 2759 |
| <b>Мухторова Заррина Султоновна, Амридинова Гуласал Аминжоновна</b>   |      |
| Inklyuziv ta'limda zamonaviy tibbiy tashxisning o'rni va ahamiyati.....   | 2762 |
| <b>Raximov Atanazar Karimovich, Yuldashova Iroda Dilshodovna, Mitalova Nargiza Salibaevna</b>   |      |
| Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....   | 2765 |
| <b>Abduraimova Gulnoza Sharif qizi</b>  |      |
| Matematika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish .....   | 2769 |
| <b>Xolmurzayeva Nigora Abdimurotovna</b>  |      |
| Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish .....   | 2774 |
| <b>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</b>  |      |
| Harakatlanuvchi robotlarda to'siqlarni aniqlash uchun kalman filtr texnologiyasi .....  | 2780 |
| <b>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Raximov Muzaffar Mirzohid o'g'li</b>  |      |
| Milliy ertak qahramonlari haykallarini yasash orqali o'quvchilarda badiiy obrazni tahlil qilish metodikasini shakllantirish .....   | 2785 |
| <b>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</b>   |      |
| Boshlang'ich sinflarda o'yin texnologiyalari asosida savod o'rgatish jarayonini takomillashtirish .....   | 2790 |
| <b>Husenova Aziza Sharipovna, Mavlonova Mohlaroyim Nurmat qizi</b>  |      |
| Rus tilidagi harakat natijasi holat fe'llarining leksik-semantik guruhlar tuzilishi .....   | 2794 |
| <b>Kurbanova Gulzoda Yunusovna</b>  |      |
| Nemis tilidagi somatik frazeologizmlar va ularning kommunikativ funksiyalari.....   | 2797 |
| <b>Mirzakarimov Maxmudjon Ro'ziboyevich</b>   |      |
| Milliy qadriyatlar asosida yoshlarning siyosiy ongini rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish metodikasi ..... | 2800 |
| <b>Murodov Nodirbek Oybek o'g'li</b>  |      |
| Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda o'quv jarayonini loyihalashning nazariy jihatlari.....   | 2804 |
| <b>Nurullayev Abduhamid Ro'zimboyevich</b>  |      |
| Python dasturlash tilida matematik figuralarni chizish metodikasi.....  | 2809 |
| <b>Rajabova Gulchekhra Salomovna</b>  |      |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya asosida yondashuvlarni kompetensiyaviy rivojlantirishdagi ahamiyati.....   | 2814 |
| <b>Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna</b>  |      |
| Bo'lajak mutaxassislarda integrativ yondashuv asosida kasbiy-madaniy munosabatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish.....   | 2820 |
| <b>Saidova Barno Narzullayevna, Usmonova Sabina Iloxom qizi</b>   |      |
| Boshlang'ich sinflarda etnopedagogik namunalaridan foydalanish usullari .....   | 2823 |
| <b>Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi, Sultonova Sevinch Doston qizi</b>  |      |
| Психологические методы диагностики правонарушающего поведения в подростковом возрасте ....  | 2827 |
| <b>Пардаева Умида Мухтар кизи</b>   |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni rivojlantirish .....  | 2831 |
| <b>U. Y. Axmedova, M. M. Ibrohimova</b>   |      |
| XX asr boshlarida buxoro hududida ichki migratsiya jarayonlarining sabablari va oqibatlari .....  | 2834 |
| <b>Nuriddinov Abrorbek To'lqin o'g'li</b>   |      |
| Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish kompetensiyasi.....  | 2838 |
| <b>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Saidova Oygul Husenovna</b>  |      |
| Ta'lim sifatini va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarning imkoniyatlari .....   | 2841 |
| <b>Tursunova Gulsora Adahamjon qizi</b>   |      |
| Ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning samarali metodik tizimini yaratish imkoniyatlari.....   | 2844 |
| <b>Olimov Timur Xasanovich, Yuldashev Ta'lant Abdinazarovich</b>  |      |
| Методические возможности ИКТ-тестирования в контроле учебных достижений учащихся старших классов (по результатам педагогического эксперимента).....   | 2848 |
| <b>Уразова Марина Ботировна, Асанова Кямиле Усмановна</b>   |      |
| Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition .....  | 2851 |
| <b>Shermukhammadova Diyorakhon Nurmuhammad kizi</b>   |      |



|  |      |
|--|------|
| Teaching Multi-Rotation Jumps to Female Skaters Aged 10–11 With the Use of the “Rotator” Vestibular Simulator.....   | 2854 |
| <b>Tokhirova Shokhsanam Farkhod qizi</b>   |      |
| Bolalar musiqa maktablarida xalq cholg'ulari darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar: refleksiya, loyiha ishlari va raqamli resurslar orqali kompetentlikni kuchaytirish ..... | 2859 |
| <b>Sharipov Sherzod Maqsudovich</b>  |      |
| Теоретические основы эстетического воспитания средствами изобразительного искусства будущего учителя (философские и психолого-педагогические основы).....                              | 2862 |
| <b>Дустова Дилдора Собиржановна</b>  |      |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tadqiqotchilik modelini rivojlantirish tadbiri.....  | 2868 |
| <b>Rajabova Nodirabegim Komilovna</b>  |      |
| Biologiya o'qitish jarayonida o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish metodikasi .....  | 2873 |
| <b>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</b>   |      |
| Oliy ta'limda biotexnologiyani o'qitishda mediapedagogika yondashuvining imkoniyatlari .....   | 2876 |
| <b>Jumabayeva Aygul Kuatovna</b>   |      |
| O'zbekistonda ayollarning ma'naviy faoliyati hamda ijtimoiy faolligi.....  | 2880 |
| <b>Bakiyeva Muhabbatxon Kamaliddinovna</b>   |      |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....   | 2883 |
| <b>Qoraboyeva Nargiza Nematjonovna</b>   |      |
| Lingvistik diskurslarning matnlararo kognitiv munosabati.....  | 2886 |
| <b>Karimova Feruza Mo'minovna</b>  |      |
| Yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligi va muvozanat qobiliyatlarini oshirish .....   | 2890 |
| <b>Safarboyev Nodirbek Shavkat o'g'li</b>  |      |
| O'tkir Rahmat she'riyatida metaforalarning qo'llanishi.....  | 2894 |
| <b>Maxammatova Feruza Olimovna</b>   |      |
| Tizimli fikrlash kompetensiyasi: tarkibi, shakllanish bosqichlari va baholash mezonlari.....   | 2898 |
| <b>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</b>   |      |
| Bolalarda kreativlikni o'yin faoliyati orqali shakllantirish .....   | 2902 |
| <b>Tojiyeva Zebuniso Abduvohid qizi, Dilnoza Mutalova Abdurashidovna</b>   |      |
| Rauf Parfi she'riyatida metafizik motivlar masalasi .....  | 2905 |
| <b>Xursanov Dilshod Baxtiyorovich</b>  |      |
| Kichik maktab yoshidagi bolalarning sensitiv davrida jismoniy tarbiya darslarida harakatlar tezkorligini oshirish .....  | 2908 |
| <b>Atabayeva Sharqiya Farxodovna</b>   |      |
| Maktabgacha yoshdagi inklyuziv talimga muxtoj bolalarni kognitiv faoliyatni rivojlantirish.....  | 2911 |
| <b>Naqibjonova Maftuna Zohidjon qiz</b>  |      |
| Критическое мышление студентов: современные методы и подходы .....   | 2914 |
| <b>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</b>   |      |
| Использование инновационных технологий в процессе образования .....  | 2917 |
| <b>Эсанова Феруза Хикматилло кизи</b>  |      |
| O'quvchilarda jismoniy harakat ko'nikmalarining shakllanish bosqichlari: harakat ko'nikmalarining pedagogik talqini.....   | 2920 |
| <b>Nematov Baxodirbek Baxtiyor o'g'li</b>  |      |
| Sun'iy intellekt davrida ta'lim va ijtimoiy fanlar: bilimdan kompetensiyaga o'tishning yangi modeli .....  | 2925 |
| <b>Islamova Fotima Shamsiddinovna</b>  |      |
| Kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy psixologik xususiyatlari mavzusida .....   | 2929 |
| <b>Nazarova Marg'uba Gulamovna</b>   |      |
| Sun'iy intellekt va inson tarjimai: poetik-pragmatik adekvatlikning qiyosiy tahlili .....  | 2934 |
| <b>Qurbonov Parda Axmedovich</b>   |      |
| Elektron ta'lim muhitida o'quvchilarning kasbga bo'lgan kompetensiyalarini rivojlantirish .....  | 2938 |
| <b>Sulaymonova Nigora Olimjon qizi</b>   |      |
| Multimediali hikoyalar asosida bolalarda do'stlik, hamkorlik va empatiyani rivojlantirish .....  | 2940 |
| <b>Yoqubjonova Mohlaroyim Abdumalik qizi</b>   |      |
| Zamonaviy oliy ta'limda falsafa fanini integratsiyalash orqali talabalar ma'naviy kompetensiyasini rivojlantirish.....   | 2944 |
| <b>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</b>   |      |
| Folklor asarlarini o'qitishning pedagogik ahamiyati .....  | 2948 |
| <b>Djumaniyozov Farrux Shavkatovich</b>  |      |
| Tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etishda kreativlikka asoslanishning afzalliklari .....  | 2951 |
| <b>Xasanova Shahnoza Omonbayevna</b>   |      |
| Abdulla Avloniy asarlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya .....   | 2954 |
| <b>Masharipova Sadoqat Erkinovna</b>   |      |
| Zamonaviy ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar .....   | 2957 |
| <b>Akramova Surayo Renatovna, Naimova O'g'iloy Alisher qizi</b>  |      |

|   |      |
|---|------|
| Muzey ta'limi asosida estetik tarbiyani shakllantirishda integrativ yondashuv.....  | 2960 |
| <i>Saparboyev Nurbek Tuliboyevich</i>   |      |
| Abdulla Avloniy pedagogik qarashlari orqali yosh avlodda mustaqil va sog'lom fikrlashni rivojlantirish.....                                     | 2963 |
| <i>Sattarov Allabergan Vyacheslavovich</i>  |      |
| Faollashtiruvchi ta'lim metodlarini steam yondashuvi asosida takomillashtirish.....   | 2966 |
| <i>Rajabova Lobar Choriyevna</i>  |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kichik folklor janrlari orqali estetik did va axloqiy tarbiyani shakllantirish..                               | 2970 |
| <i>Ikromova Gulhida Ahmadillo qizi, Abdusalimova O'g'iloy Ismoiljon qizi</i>  |      |
| Matematika fanida differensial yondashuv asosida ta'limni individuallashtirish.....   | 2975 |
| <i>Nurova Vasila Bahodirovna</i>  |      |
| Milliy kurash sport turi mutaxassislarini tayyorlash metodikasini takomillashtirish .....   | 2979 |
| <i>Aminova Aziza Alidjanovna</i>  |      |
| Arab tilida sinonimiya hodisasi .....   | 2983 |
| <i>Mamazulunov Husnuddin</i>  |      |
| Arab tilini o'qitishda yozma nutq ko'nikmasini shakllantirishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlar .....                              | 2987 |
| <i>Mamajanova Viktoriya</i>   |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida nostandart masalalarni yechish usullarini o'rgatish metodikasi .....                     | 2990 |
| <i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>   |      |
| Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining tarbiyaviy samaradorligi.....   | 2994 |
| <i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>   |      |
| Ta'limda "kompetensiya" tushunchasi – zamonaviy pedagogik nazariyaning asosiy kategoriyasi sifatida .   | 2999 |
| <i>Umarov Xusan Abduraximovich</i>  |      |
| Umay ona obrazi xususida ayrim mulohazalar.....   | 3003 |
| <i>Rizoyeva Mehriniso Abduazizovna</i>  |      |
| Ona tili ta'limining metodik asoslari va rivojlanish bosqichlari .....  | 3006 |
| <i>Kurbonova Gulshan Berdimurodovna</i>   |      |
| Bolalarda mayda motorika va artikulyatsiyasini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi .....                               | 3011 |
| <i>Mamasharipova Nargiza Elmurod qizi</i>   |      |
| Психологическое сопровождение детей 5–7 лет в период перехода из детского сада в школу.....   | 3015 |
| <i>Ширбачеева Гульчехра Шакировна, Зарипова Екатерина Владимировна</i>  |      |
| Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalari .....  | 3019 |
| <i>Abdusattorova Durdona Abdullajon qizi</i>  |      |
| Buxoro viloyati bojxona boshqarmasi faoliyati xususida (2021–2022-yillarning qiyosiy tahlili asosida. Yig'ma jild № 4/1–5: 1–6-sahifalar) ..... | 3022 |
| <i>Raxmatov Mirjon Mo'minovich</i>  |      |
| Ingliz tilini o'qitishda ta'limiy innovatsiyalar: xalqaro tajriba va tahlil .....   | 3028 |
| <i>Xayitova Aziza Rahimovna</i>   |      |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini qadriyat sifatida shakllantirish .....   | 3034 |
| <i>Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich, A'Iloxonov Axadxon Axrorxon o'g'li</i>   |      |
| Kasbiy ta'lim jarayonida talabalarning o'quv motivlarini o'rganilishi .....   | 3040 |
| <i>Karimjanova Yoqutxon Urinbayevna</i>   |      |
| O'zbek adabiyoti ta'limida talabalarning o'quv bilish motivasiyasini faollashtirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari .....               | 3044 |
| <i>Ortiqova Dildora Begmirzayevna</i>   |      |
| Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning korreksion-pedagogik modeli.....                                | 3048 |
| <i>Saxatova Nafisa Miryunus qizi</i>  |      |
| O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari .....  | 3051 |
| <i>Norqulova Dildora Shavkat qizi</i>   |      |



# OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI HAMKORLIK MEKANIZMLARINING TARBIYAVIY SAMARADORLIGI

UDK

Ibragimova Aziza Toshniyazovna

SamDU Kattaqo'rg'on filiali axborot-resurs markazi direktori  
Osiyo xalqaro universiteti magistratura talabasi

ORCID: 0009-0004-6538-1999

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ota-onaning pedagogik madaniyati farzand tarbiyasining muhim omili sifatida nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda pedagogik saviya, tarbiyaviy mas'uliyat va pedagogik kompetensiyaning oilaviy tarbiyadagi o'rnini xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Ota-onaning ongli, tizimli va ilmiy asoslangan tarbiyaviy yondashuvi farzand shaxsining ma'naviy, ijtimoiy va psixologik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Maqola oilaviy tarbiyani takomillashtirishga doir nazariy xulosalar bilan boyitilgan.

**Kalit so'zlar:** ota-onaning pedagogik madaniyati, farzand tarbiyasi, tarbiyaviy mas'uliyat, pedagogik kompetensiya, oilaviy tarbiya.

**Abstract:** This article examines parents' pedagogical culture as a key factor in child upbringing. Based on the analysis of international and local scholarly sources, the study reveals the role of pedagogical competence, parental responsibility, and a conscious educational approach in family education. It is substantiated that a systematic and scientifically grounded parental approach significantly influences the moral, social, and psychological development of the child. The article provides theoretical insights aimed at enhancing the effectiveness of family upbringing.

**Key words:** parents' pedagogical culture, child upbringing, parental responsibility, pedagogical competence, family education.

**Аннотация:** В статье педагогическая культура родителей рассматривается как один из ключевых факторов воспитания ребенка. На основе анализа зарубежных и отечественных научных источников раскрывается значение педагогической компетентности, воспитательной ответственности и осознанного родительского подхода в системе семейного воспитания. Обосновывается влияние педагогической культуры родителей на личностное, социальное и психологическое развитие ребенка. Полученные выводы направлены на теоретическое обогащение и совершенствование проблематики семейного воспитания.

**Ключевые слова:** педагогическая культура родителей, воспитание ребенка, воспитательная ответственность, педагогическая компетентность, семейное воспитание.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida farzand tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi strategik omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro pedagogik va psixologik tadqiqotlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik barqarorligi hamda ma'naviy kamoloti ko'p jihatdan oilaviy muhit va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvlari bilan bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi <sup>[1]</sup>. Ayniqsa, bolalik davrida shakllangan ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar keyingi ta'limiy muvaffaqiyat, shaxslararo munosabatlar va hayotiy moslashuvchanlikning muhim prediktori sifatida e'tirof etiladi <sup>[2]</sup>.

Mamlakatimiz sharoitida ham farzand tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimizning ma'ruza va chiqishlarida oilaning tarbiyadagi mas'uliyati, ota-onaning farzand kamolotidagi o'rnini hamda tarbiya masalasiga ongli yondashuv zarurligi muntazam ta'kidlanadi <sup>[3]</sup>. Mazkur yondashuv ota-onaning pedagogik madaniyatini oshirish, oiladagi tarbiyaviy muhitni mustahkamlash va maktab bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi <sup>[4]</sup>.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda ota-onaning pedagogik madaniyati faqat an'anaviy tajriba bilan cheklanmay, balki pedagogik-psixologik bilimlar, tarbiyaviy mas'uliyat va kompetensiya, muloqot madaniyati hamda emosional barqarorlikni ham o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi <sup>[5]</sup>.

Axborot oqimining kuchayishi, raqamli muhitning bolalar hayotiga chuqur kirib kelishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ota-onaning ongli va ilmiy asoslangan tarbiyaviy faoliyati farzand



shaxsining barqaror rivojlanishini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi <sup>[6]</sup>. Shu bois mazkur maqolada ota-onaning pedagogik madaniyati farzand tarbiyasining muhim omili sifatida xorijiy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi va amaliy xulosalar chiqariladi <sup>[7]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy pedagogika va psixologiya adabiyotlarida ota-onaning tarbiyaviy madaniyati farzand shaxsining rivojlanishida tayanch omil sifatida yoritiladi. Tadqiqotlar ota-onaning tarbiyaviy pozitsiyasi va uslubi bolada ijtimoiy moslashuv, o'z-o'zini baholash, mas'uliyat hamda xulq-atvor barqarorligini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutishini ko'rsatadi <sup>[2]</sup>. Jumladan, D. Baumrindning ota-onalik uslublari haqidagi klassik ishlari tarbiyaviy yondashuvlarning (demokratik, avtoritar, befarq) farzandning psixologik holati va xulq-atvoriga ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslab beradi <sup>[8]</sup>. Uning xulosalariga ko'ra, demokratik (muvozanatli talab va qo'llab-quvvatlash) tarbiya uslubi farzandda mustaqil fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat va emotsional barqarorlikni kuchaytiradi <sup>[8]</sup>.

L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi doirasida ota-onaning pedagogik saviyasi va oilaviy muhit bolaning psixik taraqqiyotini ta'minlovchi "yaqin rivojlanish zonasi"ni qo'llab-quvvatlovchi asosiy resurs sifatida talqin qilinadi <sup>[9]</sup>. Ushbu yondashuvga ko'ra, bola rivojida "ijtimoiy vositachilik" hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni ota-ona bolaning imkoniyatlarini to'g'ri baholab, mos pedagogik yordam ko'rsata olsa, rivojlanish sur'ati va sifati oshadi <sup>[9]</sup>.

Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish konsepsiyasida ham tarbiyada yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi asoslanib, haddan ortiq nazorat yoki noto'g'ri talablar bolaning tashabbuskorligi va mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatib beriladi <sup>[10]</sup>.

Psixologik yo'nalishda E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi ota-onaning barqaror va mas'uliyatli munosabati bolaning ilk bosqichlarda "ishonch–ishonchsizlik" muammosini hal etishida hal qiluvchi omil ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi <sup>[2]</sup>. Bu g'oya J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasi bilan ham uyg'unlashadi: bola ota-onadan emotsional qo'llab-quvvatlash va izchillik ko'rsa, unda xavfsizlik hissi, ijobiy "Men" tasavvuri va munosabatlarga ochiqlik mustahkamlanadi <sup>[11]</sup>.

Demak, tarbiyaviy mas'uliyat faqat "nazorat" bilan cheklanmay, balki farzandning hissiy ehtiyojlarini o'z vaqtida anglash va qo'llab-quvvatlashni ham o'z ichiga oladi <sup>[11]</sup>.

Zamonaviy yondashuvlar doirasida D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan emotsional intellekt konsepsiyasi ota-onaning emotsional kompetentligini farzandda empatiya, o'zini boshqarish va stressga chidamlilikni rivojlantiruvchi omil sifatida asoslaydi <sup>[12]</sup>.

Shu nuqtayi nazardan, ota-onaning pedagogik madaniyati tarbiyani faqat xulq-atvorni tartibga solish jarayoni sifatida emas, balki farzandning ichki psixologik resurslarini shakllantirish mexanizmi sifatida talqin etishni talab qiladi <sup>[12]</sup>.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy ilmiy tajriba ota-onaning pedagogik madaniyati farzand shaxsining ma'naviy, ijtimoiy va psixologik kamolotini belgilovchi ko'p omilli tizim ekanini ko'rsatadi <sup>[1-2]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda pedagogika va psixologiya fanlarida ota-onaning pedagogik madaniyati hamda farzand tarbiyasi masalasiga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning konseptual yondashuvlari, nazariy modellari hamda ilmiy xulosalari qiyosiy-tahliliy usulda tahlil qilindi <sup>[1-12]</sup>.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda analiz va sintez, taqqoslash, tizimlashtirish hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ota-onaning pedagogik saviyasi, tarbiyaviy mas'uliyati va kompetensiyasi farzand shaxsiy rivojiga ta'sir etuvchi asosiy nazariy omillar sifatida ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi konseptual jihatdan asoslandi. Mazkur metodologik yondashuv ota-onaning pedagogik madaniyatini farzand tarbiyasining muhim nazariy omili sifatida yoritish hamda xorijiy ilmiy tajribalar asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Farzand tarbiyasida oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi tarbiyaviy jarayonning izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval). Oila va maktab tarbiyaning asosiy subyektlari sifatida bir-birini to'ldiruvchi funksiyalarni bajaradi. Biroq bu hamkorlik faqat rasmiy aloqa yoki vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tadbirlar bilan cheklanib qolgan taqdirda, u kutilgan natijani bermaydi. Hamkorlik aniq mexanizmlar asosida, muntazam va rejalashtirilgan tarzda tashkil etilgandagina tarbiyaviy samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda hamkorlik mexanizmlari deganda oila va maktab o'rtasida axborot almashinuvi, pedagogik ta'sirni muvofiqlashtirish hamda birgalikdagi tarbiyaviy faoliyatni ta'minlovchi tashkiliy-uslubiy shakllar tushuniladi. Bunday mexanizmlarga ota-onalar yig'ilishlari, pedagogik maslahatlar, ota-onalar uchun trening mashg'ulotlari, ochiq darslar, individual suhbatlar hamda maktab psixologi faoliyati kiradi. Ushbu mexanizmlar o'zaro bog'liq holda ishlaganda hamkorlikning real pedagogik samarasi yuzaga chiqadi.

**1-jadval: Oila va maktab tarbiyaviy maqsadlarining yagona yo'nalishda uyg'unlashuvi<sup>1</sup>**

| No | Tarbiyaviy yo'nalish               | Oiladagi tarbiyaviy maqsad       | Maktabdagi tarbiyaviy maqsad            | Yagona yo'nalish (uyg'unlik)       | Farzand shaxsiga ta'siri |
|----|------------------------------------|----------------------------------|---|------------------------------------|--------------------------|
| 1  | <b>Axloqiy tarbiya</b>             | Hurmat, odob, kattalarga itoat   | Intizom, hurmat, axloqiy me'yorlar      | Axloqiy qadriyatlarning izchilligi | Barqaror axloqiy xulq    |
| 2  | <b>Mas'uliyatni shakllantirish</b> | Vazifalarni bajarishga o'rgatish | O'quv mas'uliyati, javobgarlik          | Mas'uliyatga yagona talab          | Javobgarlik hissi        |
| 3  | <b>Intizom</b>                     | Qoidaga rioya qilish             | Maktab intizomi va tartib               | Intizomning bir xil talqini        | O'zini boshqara olish    |
| 4  | <b>Ijtimoiy munosabatlar</b>       | Oila a'zolari bilan muloqot      | Tengdoshlar va pedagoglar bilan muloqot | Ijtimoiy muloqotning uzviyligi     | Ijtimoiy moslashuv       |
| 5  | <b>Mustaqillik</b>                 | O'z qarorini qabul qilish        | Mustaqil fikrlashni rivojlantirish      | Mustaqillikni qo'llab-quvvatlash   | O'ziga ishonch           |
| 6  | <b>Mehnatsevarlik</b>              | Uy yumushlarida ishtirok         | O'qishga mas'ul munosabat               | Mehnatga yagona munosabat          | Faollik va tashabbus     |
| 7  | <b>Qadriyatlar tizimi</b>          | Milliy va oilaviy qadriyatlar    | Umuminsoniy va milliy qadriyatlar       | Qadriyatlarning mosligi            | Ma'naviy yetuklik        |

A. S. Makarenko tarbiyada "jamoaviy ta'sir" muhimligini ta'kidlab, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikni tarbiyaning muhim tashkiliy sharti sifatida baholaydi. Uning fikricha, agar pedagog va ota-ona farzand tarbiyasida bir-birini tushunsa va bir xil talablar asosida harakat qilsa, tarbiyaviy ta'sir kuchayadi. Bu g'oya hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi aynan izchillik va kelishilganlik bilan belgilanadi, degan xulosaga olib keladi.

Fikrimizcha, oila va maktab hamkorligi samaradorligini belgilovchi asosiy omil – bu hamkorlik mexanizmlarining tizimli tashkil etilishidir (1-rasm). Ota-onalar yig'ilishi faqat hisobot berish shaklida emas, balki pedagogik muammolarni birgalikda muhokama qilish maydoni bo'lishi kerak. Pedagogik maslahatlar ota-onaga tayyor ko'rsatmalar berish bilan cheklanmay, ularni farzand tarbiyasining faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilishi lozim. Shu ma'noda, hamkorlik mexanizmlari oila va maktabni "aloqa qiluvchi tomonlar" emas, balki "hamkor subyektlar" sifatida birlashtiradi.

Mazkur mexanizmlar orqali ota-onalar farzandining ta'limiy yutuqlari, xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi va psixologik holati haqida muntazam hamda ishonchli axborotga ega bo'ladi. Shu bilan birga, pedagoglar o'quvchining oilaviy muhiti, tarbiya uslubi va psixologik holatiga ta'sir etuvchi omillar haqida muhim ma'lumotlar oladi. Bu ikki tomonlama axborot almashinuvi tarbiyaviy qarorlarni ongli va individual yondashuv asosida qabul qilish imkonini beradi.

Masalan, ota-onalar uchun tashkil etilgan trening mashg'ulotlarida bolalarning yosh xususiyatlari, muloqot madaniyati va nizolarni hal etish usullari muhokama qilinsa, ota-onalar tarbiyaviy jarayonda o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqadi. Natijada maktabda kuzatilayotgan muammoli xulq-atvor holatlari oilada ham izchil tarzda bartaraf etila boshlaydi. Yoki ochiq darslar orqali ota-onalar o'qituvchining pedagogik yondashuvini bevosita kuzatib, farzandiga qo'yilayotgan talablarning mazmunini chuqurroq anglaydi.

Shuningdek, individual suhbatlar va maktab psixologi bilan hamkorlik ota-onaga farzandining shaxsiy muammolarini erta aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim yordam beradi. Bunday mexanizmlar mavjud bo'lmagan sharoitda esa ota-onalar ko'pincha muammoni kech anglaydi yoki uni faqat maktab zimmasiga yuklashga moyil bo'ladi. V. A. Suxomlinskiy oila va maktab hamkorligini "bola taqdiriga birgalikda mas'ul bo'lish" jarayoni sifatida talqin qilib, bu hamkorlikning real natijasi faqat o'zaro ishonch va hamjihatlik mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Demak, samarali mexanizmlar nafaqat tashkiliy, balki axloqiy-psixologik asosga ham ega bo'lishi lozim.


Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi farzand tarbiyasida muhim ijtimoiy-pedagogik omil hisoblanadi. Muallifning ilmiy nuqtayi nazariga ko'ra, mazkur mexanizmlar hamkorlikni mavhum tushuncha sifatida emas, balki aniq tashkiliy va amaliy tizim sifatida namoyon etadi. Bundan kelib chiqadiki, oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlari tarbiyaning uzluksizligini, izchilligini hamda farzand shaxsining barqaror ijtimoiy-psixologik rivojini ta'minlovchi muhim shart hisoblanadi.

<sup>1</sup> **Manba:** K.D. Ushinskiy, L.S. Vygotskiy, V.A. Suxomlinskiy qarashlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik farzand shaxsiy rivojiga kuchli ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatadi. Ushbu hamkorlik mavjud bo'lgan sharoitda bola o'zini yagona tarbiyaviy talab va qo'llab-quvvatlash tizimi ichida his qiladi. Natijada unda atrof-muhitga nisbatan ishonch, xavfsizlik hissi va barqaror xulq-atvor shakllanadi. Chunki bola uchun oila va maktab tomonidan berilayotgan talablarning bir-birini inkor etmasligi, balki to'ldirishi muhim psixologik tayanch vazifasini bajaradi.

Psixologiya fanida shaxs rivoji ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq jarayon sifatida talqin qilinadi. E. Erikson shaxs rivojlanishining dastlabki bosqichlarida "ishonch–ishonchsizlik" muammosi hal qilinishini ta'kidlab, bola uchun muhim ijtimoiy institutlar tomonidan barqaror va izchil munosabat namoyon etilishi uning sog'lom psixologik rivojini ta'minlashini asoslab bergan. Oila va maktab hamkorligi aynan shu barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



**1-rasm: Oila–maktab hamkorligining farzand shaxsiy rivojiga ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmi**

Mazkur hamkorlik bolaning ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiradi. Bola o'zini turli ijtimoiy muhitlarda bir xil qoidalar va axloqiy mezonlar asosida tutishga o'rganadi. Oila va maktab o'rtasidagi uzviylik mavjud bo'lganda, bola ijtimoiy rollarni oson qabul qiladi, tengdoshlar va kattalar bilan muloqotda moslashuvchanlik namoyon etadi. Aksincha, talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik bolaning ijtimoiy muhitga moslashishini qiyinlashtiradi.

Shuningdek, oila–maktab hamkorligi bolaning o'z-o'zini baholashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar ota-ona va pedagoglar bolaning yutuqlarini bir xil mezonlar asosida baholasa va uni qo'llab-quvvatlasa, bola o'zini qadrlangan va e'tirof etilgan shaxs sifatida his qiladi. Bu holat bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. K. Rogers ta'kidlaganidek, shaxsning ijobiy "Men-kontsepsiyasi" ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan muhitda shakllanadi.

Oila va maktab hamkorligining yana bir muhim natijasi bolaning mas'uliyat va intizom hissining shakllanishidir. Agar bola oilada o'rgatilgan mas'uliyat va intizom qoidalarini maktabda ham ko'rsa, u ushbu talablarni tashqi majburiyat emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qabul qiladi. A. S. Makarenko tarbiyada aynan shu ichki intizomni shakllantirish muhimligini ta'kidlab, tarbiyaviy ta'sirning kuchi ijtimoiy muhitlar uyg'unligiga bog'liq ekanini qayd etgan.

Hamkorlikning ijtimoiy-psixologik ta'siri bolaning psixologik barqarorligida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Oila va maktab tomonidan bir xil talablar hamda qo'llab-quvvatlovchi munosabat mavjud bo'lganda, bola stressli vaziyatlarga nisbatan bardoshliroq bo'ladi, o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganadi va muammolarni konstruktiv hal etishga intiladi. Bu holat bolaning emotsional yetukligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning fikricha, oila–maktab hamkorligi farzand shaxsiy rivojiga faqat tashqi xulq-atvor darajasida emas, balki uning ichki psixologik tuzilmasiga ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bola yagona tarbiyaviy maydonda shakllanganida, u ijtimoiy me'yorlarni majburiy qoidalar sifatida emas, balki shaxsiy qadriyat sifatida qabul qiladi. Shu sababli hamkorlik bolaning tashqi moslashuvidan ko'ra, ichki barqarorligini shakllantirishda muhimroq rol o'ynaydi.

Masalan, o'quvchi maktabda darsdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirilsa va bu holat ota-ona tomonidan ham qo'llab-quvvatlansa, bola o'z mehnatining qadrlanishini his qiladi (1-rasm). Natijada uning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi. Aksincha, maktabdagi talablar oilada e'tiborsiz qoldirilsa, bola o'z xatti-harakatlariga nisbatan befarq bo'lib qolishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytilish mumkinki, oila–maktab hamkorligi farzand shaxsiy rivojiga kuchli ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatadi. Muallifning ilmiy nuqtayi nazariga ko'ra, ushbu hamkorlik bolaning ijtimoiy moslashuvchanligini, o'z-o'zini baholashini, mas'uliyat va intizomini hamda psixologik barqarorligini rivojlantiruvchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik tarbiyaning yakuniy va eng muhim natijasi – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ota-onaning pedagogik madaniyati farzand tarbiyasining asosiy va belgilovchi omillardan biri ekanini ko'rsatdi. Pedagogik saviya, tarbiyaviy mas'uliyat va kompetensiyaning uyg'unlashuvi oilada sog'lom tarbiyaviy muhitni shakllantirib, farzand shaxsining ma'naviy, ijtimoiy va psixologik rivojini ta'minlaydi. Xorijiy ilmiy tajribalar tahlili ota-onaning ongli va ilmiy asoslangan tarbiyaviy yondashuvi bolada ichki intizom, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishini tasdiqlaydi. Shu bois ota-onaning pedagogik madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan nazariy yondashuvlar zamonaviy tarbiya jarayonini takomillashtirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO, 2015.
2. Berk, L. E. Development Through the Lifespan (6th ed.). Boston: Pearson, 2014.
3. Mirziyoyev, Sh. M. Oila, tarbiya va ma'naviyat masalalariga doir ma'ruza va chiqishlar to'plami (rasmiy manbalar asosida). Toshkent, 2017–2024.
4. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari: oila, ta'lim va tarbiya sohasidagi konsepsiya va dasturlar. Toshkent, turli yillar.
5. Bornstein, M. H. (Ed.). Handbook of Parenting. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum / Routledge, 2002–2019.
6. OECD. Trends Shaping Education. Paris: OECD Publishing, 2022.
7. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. Boulder, CO: Westview Press, 2011.
8. Baumrind, D. Child care practices anteceding three patterns of preschool behavior. Genetic Psychology Monographs, 75, 1967, 43–88.
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Piaget, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1969.
11. Bowlby, J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. New York: Basic Books, 1969.
12. Goleman, D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.